

O`ZBeKISTON ReSPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PeDAGOGIKA
INSTITUTI

PeDAGOGIKA FAKUL`TeTI

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» kafedrası
«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» ta`lim yo`nalishi
«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasini o`qitish
metodikasi va nazariyasi» fanidan

MUSTAQIL Ishi

Mavzu : Maktablarda tasviriy san`at darsida oqim va yo`nalishlarni
o`rgatish metodikasi

Bajargan : 3 v-kurs talabasi

Yu.Ismetov

Qabul qilgan :

T.Bekmuratov



Nukus–2016

**MAVZU : MAKTABLARDA TASVIRIY SAN`AT DARSIDA OQIM
VA YO`NALISHLARNI O`RGATISH MeTODIKASI**

ReJA:

Kirish

1.Jahon san`atida oqim va yo`nalishlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi.....3

Asosiy qism

1.Umumiy o`rta ta`lim maktablarida davlat ta`lim standartiga kiritilgan oqim va yo`nalishlarni o`rganish.....5

2.Badiiy ta`lim jarayonida oqim va yo`nalishlarning ahamiyati. Jahon tasviriy san`atiga oid oqim va yo`nalishlarni tahlil qilish.....11

Xulosa24

Foydalanilgan adabiyotlar.....26

KIRISH

I.1.Jahon san`atida oqim va yo`nalishlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi

San`at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Mehnat jarayonida inson tafakuri kamol topdi, go`zallik, Qulaytslik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotida kata o`zgarishlar sodir bo`ldi : aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muxim ahamiyat kasb edi. Professional san`at va san`atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. San`at esa o`zining speitsifik xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnining ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orqasidan etishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san`at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo`ladigai kurashga da`vat etdi.

O`zbekiston ijtimoiy xayotida bo`lgani kabi, uning san`atida ham tub o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. O`zining boy merosiga ega bo`lgan tasviriy san`at, xususan uning eng ommaviy turi-rangtasvir san`atning boshqa turlaridan o`zining taraqqiyparvarligi, g`oyalarni avangard usulda tasvirlashga qulayligi bilan ajralib turadi. Shu bois ham rangtasvirda turli oqim, yo`nalish va uslublarga tarmoqlangan xamda ramziy shakllar asosida yaratilgan asarlar tasviriy san`at tarixida aloxida o`rin tutadi.

Hozirgi zamon rangtasvirida asosan ikkita qarama-qarshi va ziddiyatli an`analarni ko`rish mumkin. Ularning biri «retro», ya`ni an`anaviy realistik qonun-qoidalar asosida yaratish bo`lsa, ikkinchisi esa , «avangardazim», ya`ni jahon san`atining ilg`or an`analarining chegarasidan olib chiquvchi oqim va yo`nalishlarning to`g`ridan-to`g`ri natijasidir.

Avangardizmning nazariy ildizlari abstraktsionizm va uning voqelikdan uzilishi oqibatida tug`ilgan emas. Chunki har qanday asar u yoki bu tarzda real xayotdagiga o`xshamasa ham, u avvalo voqealikni mujassamlashtiradi.

Ijoddagi erkinlik jamiyatdan tashqari yashay olmaydi, jamiyat milliy uslublarda tilida ifodalangan o`z mazmnini san`atga beradi. Vaholanki, milliy uslublarda bir guruh san`atkorlarning to`qimasi emas, hayotdagi hamma hodisalarga tegishli yo`riqnoma yoki yuqoridan quyiga tushirilgan yo`l-yo`riqlar, xulq-atvor qoidasi yoki fikrlash usuli ham emas, balki etnik vat il

qardoshligining ma'naviy birligi jipslashtirgan xamda tarixiy yo'nalishlarning hamkorligida yuzga kelgshan harakat natijasidir.

Jahon san'ati taraqqiyotida ayrim davrlar mavjudki, amaldagi badiiy usul, yo'nalish va tasvirlash vositalari davr talabini to'liq qondirolmaydi. Shunda ijodkor yangilikka intilishi natijasida o'ziga xos yo'nalishga, uslubga asos soladi.

O'zbekiston san'ati ham XXI asrga buyuk o'zgarishlar bilan kirib keldi. Shuning uchun ham ko'plab tashkil etilayotgan ko'rgazmalarda rassomlarning asarlari turli xil uslublarda ishlanganligining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda bunday asarlarni tushunmaslik holatlari xam kuzatiladi. Buning boisi esa san'at asarlarini «o'qish» ni tahlil qilishni, oqim va yo'nalishlarni, uslublarni, o'ziga xos maktablarni bilmaslikda, ular haqida ma'lumotga ega emaslikdir.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda jahon san'ati tarixida muhim o'rin tutgan maktablar, oqim va yo'nalishlar, uslublar haqida ma'lumotlarni jamlab, o'rganib, ularning haqiqiy ma'nosini izohlab bir-biridan fraqi va o'xshash tomonlarini ochib berishga e'tibor qaratildi. Tasviriy san'at darslarini o'quvchilarga o'rgatishda oqim va yo'nalishlarning ahamiyati va ularning dunyoqarashlarini o'stirishdagi roli haqida ma'lumot beriladi.

Kurs ishimning maqsadi:

-O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, uning meros namunalarini har tomonlama o'rgatish.

-Ayni yangilanish, rivojlanish davri yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma'sul shaxslar qilib tarbiyalash.

-Ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli, o'qituvchi yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javo beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash.

-O'quvchi va yoshlarni tasviriy san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanishi, o'quvchi va yoshlar faoliyatini rivojlantirish, to'g'ri va asosiy shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borishi.

Tadqiqot obekti va predmeti:

Tadqiqot obekti Nukus shaharidagi xalq ta'lim bo'limiga qarashli №18, № 25, № 26 № 38 maktablar

Predmeti- maktablarda, kasb-hunar kollejlarida chizmachilik, tasviriy san'at, rangtasvir, qalamtasvir darslari.

Tadqiqot uslubi va uslublari:

Test, kuzatish, solishtirish, so'rovnoma, anketa va har xil metodikalardan foydalanildi.

Ish tuzilishi va tarkibi:

Kurs ishi ishi kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va mavzuga tegishli ko'rgazma qurollardan iborat.

II. Asosiy qism

II.1. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida davlat ta`lim standartiga kiritilgan oqim va yo`nalishlarni o`rganish

Badiiy yo`nalishdagi oliy o`quv yurtlari, maxsus san`at kolledjlari, litseylarning rangtasvirdan o`quv mashg`ulotlari jarayonida natura asosida real tasvirlar ishlanadi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida esa narsaning o`ziga qarab, yani naturaga qarab ishlanadi. Bu mashg`ulotlarga, avvalo, naturalizm, realizm kabi yo`nalishlar yaqin turadi.

Naturalizm (frantsuzcha «naturalisme», lotincha «naturalis»)- tabiiy, tabiatan, «natura»- tabiat)- XIX asrning so`ngidan boshlab Evropa va Amerika Qo`shma Shtatlari san`ati va adabiyotida paydo bo`lgan yo`nalishlardan biri bo`lib, borliqdagi mavjud narsalarning aynan o`zini tasvirlashga asoslangan. Asosiy tasvirlash obyekti odam hisoblanib, bosh maqsad uning xarakteri, tuzilishi, tabiatni ifodalash tushunilgan. Biroq, tasviriy san`at tarixidan ma`lumki, «naturalizm» atamasi u bilan bog`liq bo`lgan muayyan adabiy- badiiy yo`nalish bilan hamohang holda shakllanib, keyinchalik aynan tabiatdan ishlangan xomaki tasvir, qoralama, etyud, portret, manzara, natyurmort kabilarga ishlatilgan. Frantsiyada E. Mone, E. Dega, A. Tuluz- Lotrek, belgiyalik K. Menye, germaniyalik M. Liberman, K. Kolvich, italiyalik V. Velular naturalizmning yirik vakillari sanaladi.

1820- 1930 yillarda frantsuz rassomlari P. Delarosha, O. Vernelar ijodida yuzaki tasvirchilik hisoblangan ikkinchi darajali narsalarni sustkashlik bilan ko`cherish natijasida naturalizmga asos solingan. Ular ijodida salon sana`tiga, sotuvga mo`ljallangan akademik tasvirlarni ilohiylashtirishni ko`rish mumkin. Bu kabi g`oyasiz ishlarni frantsiyalik E. Mesonye, germaniyalik F. Ude va shu kabi boshqa rassomlar ijodida ham uchratish mumkin. Boshqa tomondan esa naturalizm vakillarining fotosurat singari o`ta anqlik bilan ishlashlari modernizmning bazi oqimlariga, jumladan syurrealizmga, uning rivojiga sabab bo`ldi. Tashqi tuzilishni, ko`rinishni bo`rttirib ishlash, o`ta mayday, ikkinchi darajali detallarni ham ishlash giper- realizmga ham xos hisoblanadi.

Realizm (so`nggi lotin tilidagi «realis»)- haqiqiy, mavjud)- borliqdagi mavjud narsalarni asl holatiga yaqin, haqqoniy tasvirlash san`ati. Realizm o`zining taraqqiyot bosqichlarida muayyan nomlar bilan ham yuritilgan (tanqidiy realizm, sotsiyalistlik realizm). Realizm an`analari sana`tining u yoki bu turi va janrida turlicha ko`rinishda namayon bo`lgan.

San`at tarixida realizmning muayyan, aniq chegaralari, mohiyati, tugal mazmuni aniq ko`rsatib o`tilmagan. Turli qarashlar va nuqtaiy nazarlarni turfa xilligi asosida 2 ta asosiy kontseptsiya kelib chiqadi. Shularning biriga ko`ra realizm badiiy qarashlarning asosiy an`analarini o`zida mujassamlashtirgan insoniyat san`ati va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo`shgan va qo`shib kelayotgan san`at hisoblanadi. Unda rassom tomonidan borliqning asliga yaqin holatda ishlanishi va rassomning muayyan voqea- hodisaga qanchalik yaqinligi inobatga olinadi.

Shuningdek, realizmga nisbatan uning tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi an`analarning o`ziga xosligiga ko`ra turlicha fikrlar, qarashlar ham yo`q emas. Shunga ko`ra, ayrim hollarda realizm Uyg`onish davrida shakllangan deyilsa, bazida XVIII asr realizm sana`ti davri bo`lgan, degan qarashlar mavjud. Realizm o`zining asl mohiyatini XIX asrda tanqidiy realizm shaklida namoyan qilgan bo`lsa, XX asrga kelib dunyo ikkita katta siyosiy qarashlarga bo`linishi evaziga realizmni sotsiyalistlik realizm deb ham yuritila boshlangan. Bunda sobiq ittifoq siyosati, marksizm- leninizm dunyoqarashiga asoslanilgan.

Realizmni qaysi nomda atash, qanday qarashlarning inikosi hisoblanmasin, u o`zida tasvirlash uslublarining xilma- xilligini mujassam etgani holda, dunyo rassomlarining professional shakllanish jarayonida amaliy qo`llaniladigan o`quv mashg`ulotlarining, turfa xil metodlarning borliqni tasvirlash yo`lidagi yetuk uslublaridan biri bo`lib qoladi.

Mazachcho va O. Domye, I.E. Repin, V.I. Surikov va V.A. Savrasov, o`zbekistonlik rangtasvir ustalaridan O`. Tansiqboev va R. Ahmedovlarning realizmi bir- biridan tubdan farq qilishining o`zi real borliqni tasvirlash vositalari orqali ifodalash imkoniyati naqadar cheksizligini ko`rsanib turibdi.

Realistik sana`tda borliqni ifodalashning turli shakl va uslublari uning turli xil tur va janrlarida bir- biridan farq qiladi. Borliqdagi mavjud narsalarning tashqi ko`rinishi aynan o`xshatib tasvirlangan barcha asarlar ham realistik asar hisoblanmaydi. Nafaqat tashqi o`xshatish, balki uning asardagi holati borliqdagi asl holatiga mos kelgandagina , real dunyo bilan hamohang bo`lgandagina asar realistik hisoblanadi. Shu tomoni bilan ham realizm va naturalizm bir- biridan farq qiladi. Naturalist tabiatdan aynan ko`cherish bilan cheklansa, realist hayotning chuqur mazmunini ochib berish uchun uni badiiylashtiradi, bazida bo`rttiradi, kontrastlar asosida yorug`- soya o`yini hosil qiladi, bazida esa badiiy dunyoqarashning shartli- metaformik shaklini ham xosil qiladi. Bunga F. Rabl, F. Goyya, E. Delekrua, B. Brext kabi rassomlarning ijodini misol qilib keltirish mumkin.

Badiiy mohiyat, haqiqat o`zida ikkita tomonni mujassamlashtiradi. Bular borliqni obiekktiv ifodalash vas of estetik qiymatdir. Hayotdagi barcha mavjud narsalarni tasvirlash bilan cheklanmasdan asardagi voqea- hodisalar, buyumlar muayyan g`oya asosida ideallashtirilishi ham mumkin. Asar tomoshabinda ichki hissiyotni junbushga keltirishi, hayotdagi voqea- hodisalarga nisbatan ijobiy yoki salbiy holatni uyg`otishi mumkin. Realistik sana`t o`zida estetik qarashlar va haqiqatning uyg`unligini hamohang holda mujassamlashtirgandagina hosil bo`ladi. Bunga Titsyan, Rembrandtlarning portretlari va Velaskesning rangtasvir asarlari misol bo`la oladi.

Realistik sana`tda ideal yaratish jarayoni realizm va romantizm o`rtasidagi munozaralarga, o`zaro bahslarga chambarchas bog`liq. Romantizm an`analari realizmga qarama- qarshi bo`lmagani holda, realistik asarning ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo`ladi. Shu o`rinda realizmga xos tomonlar va an`analar ham romantizmga yot emasligini takidlash joiz.

Realistik sana`tning metodlari va imkoniyatlari qanchalik keng, ulkan bo`lmasin, u cheksiz emas. Rassom real borliqdan uzoqlashib ketsa, u o`z-

o`zidan boshqa oqimga o`tib ketadi. Misol uchun, estetikaga etiborni kuchaytirsa, subyektivizmga yoki modernizmga yaqinlashib qoladi.

Zamonaviy realizmda ham, o`tmish realizm san`atida ham realizm doimo «toza» holatda kelgan emas. Realizm an`analari o`ziga qarshi bo`lgan ko`plab oqim va yo`nalishlar bilan o`zaro kurashlar natijasida rivojlanib kelgan. Xususan, haqqoniy hayotni ifodalash jarayoni diniy spiritualizm va gotika san`ati mistikasi bilan bog`liq holda keladi, gohida ular bir- biriga mutlaqo zid turadi. Gohida esa realistic va norealistik uslublarning hamohangligini bir asarda ham uchratish mumkin. Bunga simvolizm yo`nalishi vakillari M.A. Vrubel va A.A. Bloklarning ijodini misol qilib olish mumkin.

XX asr realizmi sobiq Ittifoq rassomlari ijodida yanada o`ziga xos kechdi. Ularning ijodiga realizm «xalqchil», «partiyaviy» bo`lishi shart, degan qat`iy qoidalar kiritildi. Badiiy asar xalqchil bo`lmasa yoki partiya siyosatiga to`g`ri kelmasa, u realistic asar hisoblanmagan. U qanday oqim va yo`nalishga mos bo`lmasin, qati`y tanqidga uchragan.

Tasviriy san`atda tasvirlash vositalari yordamida atrof muhitni, buyumlar olamini asl holati singari taassurot uyg`otish realistik tasvir hisoblanadi. Biroq tarixiy taraqqiyot davri, bosqichlar va ulardagi odamlarning badiiy didi, dunyoqarashi, taraqqiyot darajasiga ko`ra har bir davrda realizm o`ziga xos tarzda rivojlandi. Ibtidoiy jamoa davri, Antik davr, Uyg`onish davri va shu kabi boshqa davrlar realizmi bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Tor manoda «realizm» atamasi XIX asr o`rtalarida Frantsiyada qo`llanila boshlagan. Bu XVII- XVIII asrlarda shakllanib, XIX asrda o`zining tom manoda yuqori cho`qqisiga chiqib, tanqidiy realizm shaklida namoyon bo`lgan yo`nalishga nisbatan ishlatilgan. Unda rassomlar jamiyat turmush tarzini, kishilar kundalik hayotini ishlashga katta etibor berganlar. Uning rivoji bevosita kishilar turmush tarzining o`sishi, sanoatning rivojlanishi, texnikaning jadal o`sishi, tabiiy fanlarga, falsafaga etiborning kuchayishi bilan bog`liq bo`ldi. XVII asrda ilk kurtaklarini Gollandiyada ochgan realizm Frantsiyada J.B. Sharden va J.A. gudonlar, Angliyada U. Xogortlar ijodi orqali rivoj topdi. Ayniqsa, aholi o`rtasidagi qatlamlarning teng huquqli emasligini beayov tanqid qilgan F. Goyya ijodi realistik metodlarning shakllanishiga asos soldi. XVII asr oxiri XIX asr boshlarida romantizm davri bo`lishi bilan birga rassomlar ijodida maiyshi janrda, manzarada, portretida realistik an`analar mustahkamlanib bordi. T. Jeriko va O. Delekrualar bevosita naturaga murojaat qildilar. Ayniqsa, O. Domye ijodida o`tkir ijtimoiy- tanqidiy va realistic an`analar seziladi. Angliyada J. Konstabl, Frantsiyada K. Koro va Barbizon maktabi vakillari bevosita tabiatni kuzatish asosida oddiy holatlar ham tez o`zgaruvchanligi va tabiatning turfa xilligiga asoslangan ravishda Evropa realistik manzarachilik san`atining keyingi rivojiga asos soldilar.

XIX asrning birinchi yarmi Rossiya san`atida realizm an`analari K.P. Bryullov, O.A. Kiprenskiy va V.A. Tropininlarning portretlariga, A.G. Venetsianovning dehqonlar hayotiga oid asarlariga, S.F. Shedrinning manzaralariga xosdir. A.A. Ivanov ijodida akademiya tizimidan realizmga o`tish, P.A. Fedotov ijodida esa tanqidiy realizmni ko`rish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib realizm turli millat va elatlarning turfa xil uslublarini birlashtirgani holda o'zining etuklik darajasiga ko'tarildi. Ularning barchalariga mansub holat demokratik realizm shaklida namoyon bo'ldi. Demokratik realizmning yirik vakili G. Kurbe 1855 yilda tashkil qilgan ko'rgazmasini «Realizm pavilyoni» deb nomladi. Turli darajada va turli xil uslublarda demokratik realizm frantsiyalik J.F. Mille, E. Mane, O. Roden asarlarida, Belgiyada K. Menye, Germaniyada A. Mentsel, V. Leybl ijodida, Vengriyada M. Munkach, Chexiyada K. Purkine, Amerika Qo'shma Shtatlarida U. Xomer, T. Eykins ishlarida o'z aksini topdi.

XIX asr oxirlariga kelib V.G. Perov, M.N. Kramskoy, I.E. Repin, V.I. Surikov, N.N. Ge, I.I. Shishkin, A.K. Savrasov, I.I. Levitan va realist rassomlar bir guruh bo'lib «sayyor rassomlar» uyushmasini tuzdilar. Ularning jahon san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyos bo'ldi.

XX asr boshlarida realizm an'analari V.A. Serov, K.A. Korovin, S.V. Ivanov, N.A. Kasatkin kabi rus rassomlari ijodida mustahkam o'rin egalladi. O'zbekistonda A. Abdullaev, O'. Tansiqboev, M. Nabiev, R. Ahmedov, N. Qo'ziboev, M. Saidov kabi rassomlar realistic san'atga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

XX asrda realizm modernizm, avangardizm va shu kabi turli oqimlar, yo'nalishlar bilan o'zaro hamohang tarzda rivojlanib, XXI asr san'ati rivojiga asos soldi.

Syurrealizm (frantsuzcha «surrealisme», tom manoda- realizmdan yuqori) – XX asr san'atidagi avangard yo'nalishlardan biri. Syurrealizmning tashkil topishi XX asrning 20 yillariga to'g'ri keladi. 1924 yili A. Bretonning «Syurrealizm manifesti» chop qilindi.

1924- 1925 yillar mobaynida «Syurrealistik qo'zg'alon» bo'lib o'tdi. 1925 yili Parijda syurrealistlarning 1- ko'rgazmasi ochildi. Unda M. Ernst, Menrey, X. Arp, P. Rua, A. Masson, J. Miro, I. Dyushan, F. Pikabiya, M. Tangi, S. Dali, R. Magrit kabi rassomlar ishtirok etdilar.

Syurrealistlarning uslublaridan asosiysi ibtidoiy jamoa san'atiga, bolalar ijodiga taqlid sanalgan. Shu bilan birga syurrealistlar o'z asarlarini yaratishda kollaj, fotomontaj, kundalik buyumlar, mexanizm qismlaridan ham foydalanganlar.

XX asrning 30- yillariga kelib ko'plab san'at va madaniyatning yirik vakillari syurrealizm bilan aloqasini uzdi. Shunga qaramay, aynan 30- yillardan boshlab syurrealizm asarlaridan ko'plab ko'rgazmalar tashkil qilina boshlandi, Belgiyalik P. Delvo, ruminiyalik V. Brawner, chililik R. Matta Echawrren, shveytsariyalik K. Zeligman singari rassomlar syurrealizmning rivojiga katta hissa qo'shadilar.

XX asrning 40- yillariga kelib Breton, Dyushan, Dali, Tangi va shu kabi boshqa rassomlarning AQSHga ko'chib o'tishi bilan syurrealizmning markazi ham okean ortiga ko'chdi.

Syurrealizm vakillari ijodini XX asrning 50- 60 yillar oxirida Evropada ham uchratish mumkin bo'ldi.

Gipperrealizm- (inglizcha «hyper»- yuqori) foto- realizm, 1960 yillar oxirida pop- art asosida shakllangan G'arbiy Evropa va Amerikadagi yo'nalish bo'lib, fotografik siymilarga taqlid qilgan holda modernizmda yo'qotilgan tasvirlash, ifodalash tili aniqligini tiklashga intilgan. Uning vakillari Chak Klouz, Don Eddilar texnik uslublar asosida rassom shaxsiy uslubining o'ziga xosligiga erishishni maqsad qilib qo'yganlar. Jumladan, ular diapozitiv proektsiya asosida qalamsurat ishlab olib, unga aerograf yordamida suyuq bo'yoq sepishgan. Bu kabi ishlash texnologiyasi esa real borliqni sovuq his qilishga olib kelgan. Shunga qaramasdan, G'arbiy germaniyalik Yu. Valler va shu kabi boshqa rassomlar tasviriy san'at asarlarini faol targ'ibot qilish uchun gipperrealizmdan foydalanganlar.

Klassitsizm (nemischa «klassizismus»; lotincha «classicus»- yuqori darajali, namunaviy)- XVII asrga xos yirik badiiy uslub- klassitsizm ham Frantsiyada paydo bo'ldi. Klassitsizm vakillari aql- idrokni «san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona mezon»,- deb hisoblashgan. Ularning fikriga ko'ra, aql kuchi bilan yaratilgan asargina haqiqiy san'at asari hisoblanadi.

Klassitsizm uslubi tarafdorlari Uyg'onish davri san'atidan ilhomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojaat qildilar. Shakllarning aniq va elastik tugal, kompozitsiyalarning jiddiy, muvozanatli va mantiqiy bo'lishiga etibor berdilar. Antik davr afsonalariga, Tavrotga murojaat qilib, ulardagi g'oyalar orqali o'z davrlarining axloqiy va siyosiy muammolarini ko'tarishga harakat qildilar. Barokko vakillari umumlashma mavzudagi asarlarini dinamik kompozitsiyada ifoda etsalar, klassitsizm asarlari birmuncha vazmin, ritm va plastikada musiqiylikka intilish asosida yaratildi. Bu vaqtda san'at asarlari «oliy» va «kichik» janrlarga ajratildi. Tarixiy, mifologik va diniy mavzuda yaratilgan asarlar oliy, komediya, satira va xalq maishiy hayotini aks ettiruvchi janrlar- «kichik» yoki «quyi» janrlarga ajratilishi ham shu davrga xos mafkura mahsulidir.

Klassitsizm XVII- XIX asrlar Evropa san'atidagi uslub bo'lib, uning xarakterli tomoni Antik san'at namunalariga estetikaning eng nodir namunasi sifatida qarashda, Uyg'onish davri an'analarini davom ettirishda namoyon bo'ladi. Klassitsizm, avvalo, falsafada, me'morlikda, shaharsozlikda bo'lgani singari plastikaga katta etibor qaratiladi. Rangtasvirda ayrim hollarda monoxromlikka, yani bir rangning ustuvorligiga yaqinlashgan holda klassitsizmning asosiy ko'rinishi chiziq va yorug'- soya munosabatlarida o'z aksini topgan.

XVII asr klassitsizmining asoschisi va yirik vakili frantsuz rassomi N. Pussen bo'lib, uning asarlari o'zining yuqori darajadagi falsafiy- estetik mohiyati, kolorit va chizgilarning ritmik uyg'unligi bilan ajralib turadi.

N. Pussen, K. Loren, G. Dyugelarning asarlaridagi «ideal manzara» klassitsizm vakillarining «oltin asr» haqidagi orzu umidlarini amalgam oshirgan XVII asr klassitsizmining rivojidan dalolat beradi. XVII asrning etuk klassitsizm namunalari me'mor K. Perro ijodiga mansub Luvrning sharqiy fasadi ko'rinishida, L. Levo, F. Blondellar ijodida namoyon bo'ladi. XVII asrning ikkinchi yarmida frantsuz klassitsizmi barokko me'morligi elementlarini o'zida

mujassam etdi (Versal xiyoboni va saroyi- me`morlar J. Arduen- Mansar, A. Lenotr).

XVIII asr klassitsizmiga qadimgi Rimning Gerkulanum va Pompey singari shahar qoldiqlarini topilishi katta turtki berdi. I.I. Vinkelman, I.V. Gyote, F. Militsiylarning mehnatlari ham klassitsizmning rivojiga katta hissa qo`shdi. J.B. Brigel, E.M. Falkone, J.A. Gudonlarning plastikasida musiqiy ohang bordek tuyulsa, J.M. Venaning mifologik rangtasvirida, Yu. Rebera manzaralarida ham plastika yuqori o`rinda turadi. J.O.D. Engr singari buyuk namoyondalari bo`lishiga qaramay so`nggi klassitsizmida salon san`atiga moyillik kuchayadi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida klassitsizmning xalqaro markazi Rim bo`ldi. Unda akademizm an`analari hukmronlik qilishini ko`rishimiz mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida klassitsizmida eklektizm uslubini ham uchratamiz.

XVIII- XIX asrlar rus klassitsizmi Peterburg me`morligi bilan bog`liq holda shakllandi. Tasviriy san`atda esa Peterburgda 1757 yili asos solingan rassomlar uyushmasi faoliyati bilan chambarchas bog`liq.

A.P. Losenka, G.I. Ugryumov, I.A. Akimov, A.I. Ivanov, A.E. Yegorov, V.K. Shebuev kabi rassomlar ijodida klassitsizm tarixiy va mifologik janrlarda yorqin holda namoyon bo`ldi.

Neoklassitsizm- turli xil badiiy oqimlarni o`zida mujassamlashtiradi. Uning ayrim jihatlari XIX asr o`rtalarida preraphaelchilar ijodida ko`zga tashlanadi. Biroq, u to`liq bir oqim sifatida nemis neoidalizmida (1970 yillar o`rtasida) namoyon bo`lgan. Unga klassik san`atning plastikasi va mahobati vositasida hayotdagi tartibsizliklarga qarshi kurashish va engib o`tish xos bo`lgan. So`nggi akademizm an`analariga, antik san`at, jumladan, arxaika san`atiga dastur asosida amal qilish, gohida esa ilk Uyg`onish davri va klassitsizmga xoslik seziladi. Shuningdek, «modern» uslubi bilan yaqin aloqasi ham mavjud bo`lgan. Neoklassitsizm atamasi XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan ayrim rassomlar ijodiga va uning tarafdorlariga nisbatan qo`llaniladi. Bular jumlasiga frantsiyalik haykaltaroshlar A. Mayol va E.A. Burdel, norvegiyalik A.G. Vigelann, shvetsiyalik K. Milles, yugoslaviyalik I. Meshtrovich, rossiyalik S.T. Konyonkov, A.T. Matveev, S.D. Merkurovlarni, rangtasvirchi rassomlardan shvetsariyalik F. Xodler, frantsiyalik P. Pyuviiy de Shavann, M. Deni, rossiyalik A.S. Bakst, Z.E. Serebryakova, A.E. Yakovlevlarni kiritish mumkin.

II.2.Badiiy ta'lim jarayonida oqim va yo'nalishlarning ahamiyati **Jahon tasviriy san'atiga oid oqim va yo'nalishlarni tahlil qilish**

Abstrakt san'at (lotincha «abstractus»- chalg'igan, mavhum, adashgan)- XX asr rangtasviri, haykaltaroshligi, grafikasidagi yo'nalish bo'lib, abstraksionizm, buyumsiz san'at, konfigurativ san'at deb ham yuritiladi. Bu yo'nalish modernistik oqim bo'lib, real buyumlarni tasvirlashdan voz kechgan.

Abstrakt san'at 1910- 1913 yillar mobaynida kubizm, ekspressionizm, futurizmlarni qatlamlarga ajratish jarayonida vujudga kelgan. Uning ilk ijodkorlari Germaniyada yashagan rassomlar hisoblanadi. Ular V.V. Kandinskiy, frantsuz R. Delone, ispan F. Pikabiya, chex F. Kupka va shu kabi rassomlardir. Rossiyada K.S. Malevich, M.F. Larionov, N.S. Goncharovalar abstrakt san'at vakillari bo'lsa, Gollandiyada neoplastitsizm vakillari abstrakt san'atchilar deb yuritilgan.

1914- 1918 yillarda bo'lib o'tgan Birinchi jahon urushidan so'ng dadaizm va syurrealizm vakillarining ayrim asarlarida abstrakt san'at elementlari namoyon bo'lgan.

Sobiq Ittifoq davri boshlarida rassomlar rangtasvir san'atidan ko'ra amaliy san'at va dizaynda abstrakt san'atga murojaat qilganlarini ko'ramiz. 1930- yillarga kelib abstrakt san'at tanazzulga yuz tuta boshladi, ko'plab rassomlarning uyushmalari tarqalib ketdi.

1939- 1945 yillardan, Ikkinchi jahon urushi yillarida J. Pollok, M. Tobi kabi rassomlar tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlarida abstract ekspressionizm maktabi vujudga keldi. Urushdan so'ng esa ko'plab davlatlarda bu yo'nalish tashizm, ba'zan esa «shaklsiz san'at» nomi bilan keng tarqaldi.

1960- yillarda abstrakt san'atning bir turi sifatida opart shakllandi. Abstrakt san'at, bu paytga kelib oqim sifatida mavqeini yo'qota boshladi, uni buyumlar tasviriga etiborini qarata boshlagan boshqa oqim va yo'nalishlar siqib chiqardi.

Avangardizm

Avangard (frantsuzcha «avant- gardisme» so'zidan olingan bo'lib, u «avant- garte»- ilg'or otryad ma'nosini anglatadi)- XX asrdagi badiiy oqimlardan biri hisoblanadi. Ularning o'ziga xos, xarakterli tomoni eskirib borayotgan oqim, yo'nalish, an'analarni tubdan yangilashga intilib, ifodaviylikka erishishning yangi vositalarini izlash, o'ziga xos mazmun kashf etish, shaklni o'zgartirish va rassomlarni hayot bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilashni ilgari surganligida aks etadi.

Avangardchilarning o'ziga xos tomonlari bir qancha maktab va oqimlarda o'z aksini topgan, jumladan Evropada 1905- 1930 yillarda taraqqiy qilgan modernism, fovizm, kubizm, futurizm, ekspressionizm, dadaizm, syurrealizm, abstrakt san'atlar shular jumlasidandir. Ularning asosiy vazifalari XX asr burjua san'atiga, undagi qonun- qoidalarga qarshi chiqishda namoyon bo'lib, sotsialistlarning quroliga aylangan.

1930 yillarga kelib avangardchilik o'zining namoyishkorona isyonchilik xarakterini yo'qotadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa G'arbiy Evropa va

Lotin Amerikasi davlatlarida avangardchilik an`analari jonlanib, neoavangardizm ko`rinishida rivojlanadi. Keyinchalik u modernizm an`analarini o`zida mujassamlashtirgan holda sotsializm g`oyalariga qarshi taraqqiy etdi.

Akademizm

Akademizm (frantsuzcha «academisme» so`zidan olingan)- XVI- XIX asrlarda Evropada dvoryanlar va burjuaziya akademiyalarida hukm surgan yo`nalishlardan biri bo`lib, asosan Antik davr hamda Uyg`onish (Renessans) davri qonun- qoidalariga amal qilgan. Bir qarashda, tashqi ko`rinishidan mumtoz san`at izidan borayotganga o`xshagani bilan u asosan qotib qolgan yo`nalishlarga asoslangan. Akademizm mumtoz san`atga asoslanib, uning an`analari o`qitish tizimini o`zida mujassamlashtirib beradi, biroq zamonaviy san`atni «yuqori san`at» ga munosib emas, deb hisoblab, qadimgi san`atni «badiiy» qonunga aylantirmoqchi bo`lganlar. Uning vakillari qadimgi dunyo san`ati, mifologiya, Injil va qadimgi tarixdan olingan siymolarni ideallashtirish g`oyasini ilgari surganlar.

Barbizon maktabi

Milliy realistik manzara san`ati rivojida Parij yaqinidagi Barbizon va uning atrofiga yaqin yerlarni, Fonteblo o`rmonini o`zlari uchun sevimli maskanga aylantirgan rassomlar ijodi muhim rol o`ynadi. Ular o`z yurtlarining tabiatini kuzatish va uni chuqur o`zlashtirish asosida hajm jihatidan katta bo`lmagan manzara janriga xos asarlarni yaratib, tabiat go`zalligini ko`pchilikka ko`z- ko`z qilib, o`zlarining yurtga muhabbat va hurmatlarini ifodaladilar. Ular manzara san`atida o`zlarining his- tuyg`u va kayfiyatlarini ham ifodalashga intildilar. Ular bevosita tabiat qo`ynida asarlar yaratdilar. «Barbizon maktabi» termini ham shu yer nomidan olingan . Bu termin frantsuz milliy realistik maktab vakillarining 1930- 1940 yillardagi ijodini ta`riflash uchun qo`llaniladigan bo`lib qoldi. Bu maktab vakillari ijodiga xos xususiyat ona yurt tabiatini kuylash, kishilarda unga nisbatan muhabbat uyg`otishga qaratilganligidadir. Ularning asarlari bevosita hayotning o`zidan olinganligi, ularning kompozitsiyasi va koloritining tabiiyligi hamda nur va havoga boyligi bilan o`ziga xoslik kasb etadi.

Teodor Russo (1812- 1867) Barbizon maktabining taniqli vakilidir. U tabiatni tinch, osoyishta ko`rinishda tasvirlaydi. Bu rassom katta, ochiq kengliklarni, o`rmon chekkalarini, baquvvat, kuchli ildizlari bilan yerga yopishib olgan ulkan eman daraxtlari tanasini goh ochiq quyosh nuriga cho`mgan paytda, goh kun botish ko`rinishida tasvirlashni yoqtirardi («Normandiya bozori»). Jyul` Dyupre (1811- 1889) asarlarida esa tabiatdagi notinchlik, besaranjomlik ifodalanadi. Rassom momaqaldiroq va chaqmoq chaqish paytidagi tabiat ko`rinishlarini, botayotgan quyosh nurlarining otash haroratini aks ettiradi, hovuzlar, ko`llar tasvirini ishlaganida ularning yuzasida ham osmonda suzib borayotgan bulutlar aksini ko`rsatadi. Ertalabki kun chiqishi, sokin kechki payt poeziyasi Sharl- Fransua Dobiniy (1817- 1878) ijodida ham o`z ifodasini topdi. Rassom daryo qirg`oqlarini tasvirlashni sevadi. Uning asarlarida tinch hayot mayin va nafis ranglar tovlanishida ifodalanadi.

Barbizon maktabining yana bir vakili Nartsiss Diaz (1807- 1876) quyuq o'rmonzorlar ko'rinishi, ulardagi so'qmoq yo'llar va ochiq maydonlar tasvirini ishlaydi. Uning manzaralari birmuncha yorqin va dekorativdir. Quyuq daraxtlar orasidan tushayotgan quyosh nurlari uning asarlaridagi ranglar ziddiyati va jilvasini orttiradi. Konstan Troen (1810- 1865) manzaralari esa hayvonot olami bilan to'ldirilgan va ular tabiatning ajralmas qismi sifatida manzaralarga yanada fayz kiritadi.

Frantsuz manzara rassomligida Kamil Koro (1796- 1875) ijodi alohida o'rinni egallaydi. U tabiatning realistic umumlashma obrazini yaratib, unda o'z kechinma va kayfiyatlarini ifodalashga harakat qiladi. Rassom asarlarida nurlardan asosiy ifoda vositasi sifatida foydalanadi. Nur uning asarlarida tekis va mayin tarqaladi. Uning manzaralari sokin, osoyishta ko'rinishi bilan kishiga engil lirik kayfiyat baxsh etadi. Rassom valyorrangtasviriga (bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishi) ko'proq etibor beradi. Asarlarini tong yoki kun botishi paytida ko'proq ishlaydi, tabiatdagi namgarchilikni, qurg'oqchilikni ustalik bilan tasvirlaydi. Engil, mayin shabada, erta bahor chog'i zo'r mahorat bilan ifodalanadi. «Shamol to'zoni» (1860) deb nomlangan manzarasida yomg'irdan keyingi holat- nam, lekin toza havo, yo'llarda to'planib qolgan ko'lmak suvlar, osmondagi bulutlar harakati rassom tomonidan aniq va ta'sirchan qilib tasvirlangan.

Barokko

Barokko (italyancha «barocco», tom manoda g'aroyib, g'alati)- XVI asr oxiri va XVIII asr o'rtalari Evropa san'atida yetakchi bo'lgan uslub. XVIII asr Uyg'onish davri san'ati hamda klassitsizmdan bezakdorligi, murakkab shakllarga boyligi va dinamik jihatlar bilan ajralib turgan. Tasviriy san'atda barokko ko'proq diniy mavzudagi asarlarda o'zini namoyon qildi. Iso va avliyolarning azob chekishlari, ularni butga mixlash, Bibi Maryamning aza tutishi kabi voqealar barokko uslubida ishlangan asarlar uchun asosiy mavzu bo'ldi. Asarning dramatik- eksperssiv holati tasvirlanuvchilarning murakkab rakurslarida, yorug'- soya qarama- qarshiligi va serharakat kompozitsiyada ifoda qilingan.

Barokko san'atida rang surtmalari ham muhim ifoda vositasi sifatida ishtirok etdi. Agar klassika va Uyg'onish davri san'atida chiziq muhim o'rin tutgan bo'lsa, bunda rang surtmalari, ularning erkin ishlatilishi kompozitsiya dinamikasini oshirishda muhim o'rin egallab, asar badiiyligini kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llanildi. Shuningdek, kompozitsiyada uzoq va yaqindagi buyumlarni tasvirlashga, obrazlarni murakkab rakurslarda joylashtirishga etibor beriladiki, bu ham barokko asarlariga xos jo'shqinlik va harakatni gavdalandirishga xizmat qildi. Barokko uslubida diniy- mifologik g'oyalardan tashqari, tarixiy va maishiy mavzularda yaratilgan asarlar ham mavjud. Biroq, ularda reallik va noreallik qorishib ketgan, obrazlar bezovta, hayajonli va romantik ko'rinishda ifoda qilinadi.

Rangtasvirda barokkoga xos tomonlar asardagi obrazlarni jamiyatda tutgan o'rniga mos keladigan tarzda, ulug'vorlikka, allegorik va afsonaviylikka mos tarzda dekorativ kompozitsiya ishlashda namoyon bo'ladi.

XVII asr Barokko asri deb ham yuritiladi. Chunki davrning g'oyaviy-estetik qarashlari aynan shu uslubda ko'proq o'z ifodasini topdi. San'at tarixida XVII asr me'morligining o'ziga xos jihatlari ta'riflash uchun qo'llanilgan, keyinchalik tasviriy san'atga nisbatan ham ishlatilgan barokko uslubining belgilari dastlab Italiyada paydo bo'lgan. Vinola, Palladio me'morlik asarlarida, Mikelandjelo haykallarida, Korredjo dekorativ va dastgohli rangtasvirlarida shu tamoyillar namoyon bo'lgan. XVI asrda barokkoning vatani bo'lgan Italiyada o'ziga xos uslublar Karredjoning dekorativ va dastgohli rangtasvirida, Karavadjoning isyonkorona- demokratik asarlarida, J. Vinolani ishlarida ko'rishimiz mumkin. Birmuncha to'liq, tugallangan va juda ham yorqin tarzda barokko uslubini Oetra da Kartoni ijodida uchratamiz. So'nggi barokko G. Gvarinining fantastik asarlarida, S. Roza va A. Manyaskolarning ijodlarida, J. Tepollonining o'ta nozik, engil bezaklarida ravnaq topdi. Gollandiyada 1566-1602 yillarda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar natijasida barokko shakllandi, buni P.P. Rubens, A. Van Deyk, Ya. Yordanslar ijodida ko'ramiz. Ispaniyada esa bu yo'nalishda XVII asrga kelib, X. de Ribera va F. Surbaranlar ijod qildilar. «Barokko» atamasi bazida XVII asrning barcha san'ati va madaniy yodgorliklariga nisbatan ham qo'llanilgan.

Barokkodavri XVIII asrning birinchi yarmi me'morligi va amaliy san'atining o'zaro uyg'unligida ham o'z aksini topgan. Barokko asta-sekin o'ta nozik va bejirim rokokoga o'tib boradi, uyg'unlik hosil qiladi. 1770 yillarga kelib esa klassitsizm tomonidan siqib chiqariladi.

Bolenye akademizmi

Italiyada tashkil etilgan badiiy maktablardan biri **Bolenye akademiyasi** akademik yo'nalish tamoyillarini o'zida namoyon etgan. Bu maktabning asoschilari aka-uka Karrachilar (Lodoviko, Agostino, Annibale) bo'lib, ular yangi yo'nalish asoslarini ishlab chiqqanlar. Ular XVI asr mumtoz san'atini va ayni chog'da, naturani o'rganish zarurligini uqtirdilar. Ularning fikricha, borliq go'zallik qonunlari asosida ko'rib chiqilishi lozim. Ideal va go'zallik kanonlarini esa yuqori Uyg'onish davri san'atida ko'rdilar.

Lodoviko de- Karrachi 1585 yili Bolonyeda «Akademiya Inkamminati», yani «To'g'ri yo'lga qadam qo'yayotgan akademiya» deb nomlangan o'quv dargohini tashkil etadi. Lodoviko to'g'ri o'qitish va tarbiyalash orqali rasm chizishga qobiliyati bo'lmagan o'quvchilarni ham yaxshi rasm chizadigan mutaxassis qilib tarbiyalash mumkin, deb targ'ib qiladi va o'zi ham shunga amal qildi. Bu o'quv yurti keyinchalik Italiyada va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalarning ham ibtidosi bo'ldi.

Valet toppon

1910 yilda Rossiyada tashkil topgan «Valet toppon» (Bubnoviy valet) uyushmasi ham realizmni tan olmaydigan uyushma sifatida ma'lum bo'lishi bilan birga, «Atirgulchilar» ning ramziy va dekorativ qarashlariga ham qarshi chiqadi. Ular ko'proq Pol Sezann ijodiy uslubini tan oldilar. Hayot o'zining soddalashgan geometrik shaklini namoyon etgan holda, to'q va quyuq, qalin bo'yoqlarda ishlangan. Ular ijodida kubizm unsurlari namoyon bo'la boshladi. Buyum fakturasini chiqarish maqsadida ba'zan qog'ozdan qirqib yopishtirish

hollarini uchratamiz. P. Konchalovskiy, A. Lentulov, I. Mashkov, A. Kuprin kabi san'atkorlar bu guruh yetakchilari bo'lgan.

Verizm

Verizm (italyancha «verismo», «vero» so'zidan olingan bo'lib, haqqoniy degan ma'noni anglatadi)- XIX asrning so'nggi choragida Italiya musiqasi, adabiyoti va tasviriy san'atidagi realistik yo'nalish. Bu yo'nalish frantsuz yozuvchisi E. Zolyaning naturalizm nazariyasi tasirida yuzaga kelgan. F.P. mikketi, J.Pellitsa da Volpedolarning ijidi verizmga mansub hisoblanadi.

Gotika

Gotika (italyan tilidan «gotico», frantsuzcha «gothique», tom ma'noda gotlarniki, nemislarning got qabilasi nomidan kelib chiqqan) uslubi G'arbiy va Markaziy, qisman Sharqiy Evropa mamlakatlari O'rta asrlar san'ati rivojlanishining yakunlovchi bosqichi san'ati hisoblanadi. XII va XV- XVI asr o'rtalari san'atidagi yetakchi uslub. «Gotika» atamasi Uyg'onish davrida kiritilgan bo'lib, O'rta asrlarning barcha san'atini «varvarlarniki» (bosqinchilarniki) deb, kamsitish ma'nosida qo'llanilgan. XIX asrdan boshlab X- XII asrlar san'atiga nisbatan «roman uslubi» atamasi qo'llanilishi kiritilganidan keyin «gotika uslubi» ning xronologik tartibi chegaralanib qolgan. Ko'pincha me'morlikka nisbatan qo'llanilgan gotika uslubining rangtasvir bilan aloqasini haykaltaroshlik bilan uzviy tarzda vitraj san'ati misolida ko'rishimiz mumkin.

Dadaizm

Dadaizm (frantsuzcha «dadaisme», «dada» so'zidan- yog'och ot (toychoq), ko'chma ma'noda esa bir- biriga bog'lanmagan bolalar gapi)- 1916- 1922 yillar davomida badiiy adabiyotda va tasviriy san'atda mavjud bo'lgan oqim. U 1914- 1918 yillarda bo'lib o'tgan Birinchi jahon urushiga insoniyatda mavjud bo'lgan hayvoniy instinktlarni uyg'otuvchi hodisa sifatida qaragan tsyurix (Shvetsariya)lik bir qator ziyolilar vakillari- antiestetik pozitsiyadagi rassomlar tomonidan kashf qilingan. Ular turli chizmalar, buyumlar, narsalarni xolstga yelimlash (kollaj), fotomontaj, mexanik qurilmalarni qorishtirish va shu kabilar bilan shug'ullanganlar. 1920 yillarga kelib Frantsiyada dadaizm syurrealizm bilan, Germaniyada esa ekspressionizm bilan uyg'unlashib ketdi. Dadaistlar badiiy sintez g'oyalarini inkor etganlar. «Tayyor buyumlarni» ning dadaizmga xos kombinatsiyasi XX asr o'rtalariga kelib pop- artga manba bo'lib xizmat qildi.

Divizionizm

Divizionizm (frantsuzcha «division», lotincha «diviso»- ajratish)- toza, sof ranglar ustiga murakkab rang birikmalari qo'yish orqali rangtasvir ishlash uslubi. Toza ranglar ustiga mazok (rang surtmasi) shaklida alohida- alohida qo'yilgan murakkab ranglar birikmalari tomoshabin ko'ngida optik aralashuvi hisobiga rangtasvirda o'ziga xos ifodaviylikka erishishi maqsad qilib olingan. J. Syora va P. Sinyaklar tomonidan ishlab chiqilgan bu uslub ko'plab neoimpressionizm vakillari tomonidan qo'llanilgan.

Impressionizm

Impressionizm (frantsuzcha «impressionnisme»- taassurot) XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Evropa (Frantsiya)da asos solingan tasviriy san`at oqimi, tasvirlashning o`ziga xos yo`nalishi.

Tarix shohidki, taraqqiyot bosqichlarining sur`ati va mazmuni jahonshumul nufuzga ega bo`lganda aynan madaniyat va san`at ravnaq topgan. Bu jarayon insoniyat tarixida turlicha nomlangan. XIX asrning oxirgi choragidan keyingi davrda jahon tasviriy san`atida ro`y bergan taraqqiyot odimlari ham bunga misol bo`la oladi.

Pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga, ko`ra har qanday o`quv fanining mazmuni shu o`quv faniga nomdosh bo`lgan fundamental fanning, sohaning (shu jumladan, badiiy ijodiyot sohasi) mazmunidan kelib chiqadi.

Jahon tasviriy san`ati tarixida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tasviriy san`at tarixi uchun turli yo`nalishlar, oqimlarning kashf etilishi nuqtai nazaridan juda qiziqarli davr hisoblanadi.

Jamiyat, shu jumladan, san`at taraqqiyotida shunday davrlar mavjudki, amaldagi usul va vositalar davr talabini to`liq qondirishga ojizlik qiladi. Shunda ijodkor yangilikka intilish natijasida ba`zi ixtirolarga asos soladi. Tasviriy san`at tarixida bu kashfiyotlarning davomi, ayrim hollarda ularga qarshi kashf etilgan yana o`nlab oqim va yo`nalishlar mavjud. Shunday oqimlar ichida eng muhimi, shubhasiz, impressionizm oqimidir.

Impressionistlarning ish printsipining bosh g`oyasi rang bo`ldi. Shuning uchun ular ustaxonalardan tabiatga chiqishdi hamda tabiat va undagi elementlar (tog`, bulutlar, jilg`a, daraxt, uning shoxlari, barglari, maysa va h.k.) ular tasvirlaydigan bosh «qahramon» larga aylandi.

Impressionistlar ijodining yana bir jihati shu omil bilan tavsiflanadiki, ular o`z palitralarida faqat spektrning yetti rangi (qizil, zarg`aldoq, sariq, yashil, havorang, to`q ko`k, binafsha) ni qoldirdilar hamda o`z asarlarini yaratishda faqat shu ranglardan foydalandilar. Ranglarni qorishtirish vositasida qo`shimcha hamda murakkab ranglarni hosil qilish va ulardan kartina yaratishni sun`iy holat sifatida baholadilar. Shuning uchun faqat yetti rang bilan, unga oq bo`yoqni qo`shgan holda ranglarning surtmalarini alohida- alohida, yonma- yon surtish vositasida asar yaratdilar.

Rassomlar o`z asarlarini ko`rgazma uchun yozar, undan tushgan mablag`larga esa yangidan- yangi kartinalar yaratishar edi. Impressionistlar ham o`zlarining 1874 yildagi mashhur ko`rgazmalarigacha Luvrda o`tkaziladigan, «Salon» deb ataladigan ko`rgazmalarda katta avlod rassomlari xush ko`radigan qonun- qoidalar asosida asar yaratgan davrlarida qatnashib kelganlar. Impressionistlar o`z printsiplarini qo`llay boshlagan davrdan san`at tanqidchilarining «quvg`in» lariga uchray boshladilar. Ular orasida kartina yozish usuli jiddiy tarzda o`zgargan Mone ko`proq tanqidga uchradi. Hatto ayrim jurnalistlar Monening yangi kartinasini ko`rib, «Bu kartinani yaratganda janob Mone to`rt yoshda bo`lgan bo`lsa kerak», - deya kinoya qilganlar. Biroq shu yillarda kartina savdosi bilan shug`ullanuvchilar- marshanlardan biri Pol Dyuran- Ryul o`z vaqti o`ta qobiliyatli rassomlar avlodi yetishib chiqayotganini, vaqti kelib, ularning kartinalari juda qimmatga sotilishi mumkinligini anglab

yetgan edi. Uning bu taxmini o'zini oqladi. Vaqtlar o'tib Monening har bir kartinasini 20 ming franddan sotganida ularning beshtasini atigi 100 frankka sotib olganini mamnuniyat bilan eslab yurdi. Shu tariqa ular «ko'z qiri bilan tasvirlash» printsiptini olg'a surayotgan bir davrda Frantsiyada siyosiy bo'xronlar boshlandi.

Bu kunni san'at tarixida impressionistlarning «tug'ilgan kuni» deyish mumkin. Bu ko'rgazmaga Klod Mone «Kaputsinlar bulvari», Ogyust Renuar «Lojada» (bu mavzuga o'zbekistonlik rassom Z. Kobalevskaya ham murojaat etgan), Edgar Dega turli mavzudagi 10 ta (shulardan biri mashur «Moviy raqqosalar») ish bilan, Pol Sezann manzaralari bilan (ular orasida mashhur «Quyosh chiqishi oldidagi tassurot» asari ham bor edi) ishtirok etdilar. Biroq ko'rgazma ular kutgan natijani bermadi, ixlostmandlar birorta ham kartinani sotib olmadilar, impressionistlarni esa telbalarga chiqarishdi.

Impressionistik rangtasvirning mohiyati shundaki, unda rassom o'z tassurotini tabiatning aniq bir holati- quyoshli kun, yomg'irli kun, tong, peshin, oqshom va hokazolarning tasviriga bag'ishlagan. Ifoda vositalarining tasirchanligini oshirishga, borliqdagi voqea va hodisalarni anglashga asoslangan bu san'at turi Evropa, Amerika va Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston san'atiga ham tasir o'tkazdi. Xususan, L.Bure, O.Tatevosyan, P.Benkov, Z.Kovalevskaya, A.Mirsoatov, J.Umarbekov, A.Mirzaev, Sh.Abdurashidov, A.Yunusov kabi o'zbekistonlik rassomlarning ijodlarida impressionizm elementarini ko'rish mumkin.

Karavajizm

Karavajizm deb nomlangan badiiy yo'nalishga asos solgan Mikelanjelo Merizi da Karavajo (1573- 1610) qisqa umr ko'rganiga qaramay, yangi davr realistik san'atning yetakchi tamoyillarini rivojlantirib, Evropa realistik san'ati taraqqiyotiga kuchli tasir o'tkazgan. Evropa san'atida birinchi bo'lib natyurmort («Mevali savat», 1596) janrida mustaqil asar yaratdi. Karavajonning dastlabki yirik asarlaridan biri «Lyutna chaluvchi» (1595) asari bo'lib, u rassom ijodining o'ziga xos jihatlarini, uning rangtasvir san'atidagi islohotini namoyon etadi. Bu islohotning mohiyati, avvalo, real borliqni haqiqiy san'at manbaiy deb bilishi bilan bog'liqdir. Lekin, rassom borliqni aynan ko'chirmaydi, balki eng muhim jihatlarini bo'rttirish, kuchaytirish hisobiga hodisalarni ta'sirli san'at shakli darajasiga ko'taradi. Siymolardagi ruhiy holat, chiziqlar plastikasining go'zalligi, yorug'- soya o'ynining birmuncha keskinligi asarni oddiy hayotdan ko'chirma emasligini bildirib turadi. Asosiy siymolarni yorug'likni kuchaytirish hisobiga birinchi planga chiqarish, orqa planning ko'pincha to'q qoramtir gammada ifodalanishi kompozitsiyaga o'ziga xos fazoviy kenglik va chuqurlik beradi. Rassomning bu uslubi keyinchalik Evropa san'atida «yerto'la rangtasviri» deb nomlangan rangtasvirning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Kollej

Kollaj (frantsuzcha «collage»- tom ma'noda yopishnirish)- tasviriy san'atidagi texnik uslub, asosdagi rangdan tusi va fakturasi bilan farqlanuvchi materiallarni yelimlash. Shu uslub bilan bajarilgan asarlar ham kollaj deb ataladi.

Kollaj asosan grafikada qo'llaniladi, chunki turli materiallar, turli fakturaning ifodaviyligi o'zaro hamohanglikni orttiradi. Rasmiy tadqiqot sifatida kollaj kubizm, futurizm va dadaizm vakillari tomonidan tatbiq qilingan.

Konstruktivizm

Konstruktivizm (lotincha «construction»- qurish ma'nosini anglatadi)- XX asr san'ati yo'nalishlaridan biri bo'lib, kubizm va futurizm bilan bog'liq san'at. XX asrning 20- yillarida me'morlikda, badiiy san'atda, teatr dekoratsiyasida, kitobat san'atida, konstruksiyalashda, tasviriy san'atda qo'llanilgan yo'nalishlardan biri: metall, oyna, yog'och kabi materiallardan foydalangan holda shakl hosil qiluvchi yangi texnikalarni shiddat bilan hayotga kirib kelishidan foydalanib asar yaratish.

Tasviriy san'atda badiiy konstruksiyalash materiali bo'lib, ko'plab san'at asrlari, buyumlarni yangi ishlab chiqarishda foydalaniladigan va shunga mo'ljallangan idish- tovoqlar, mebellar, matolar uchun tasvirlar ishlangan

Manyerizm

Manyerizm (italyancha «manerismo», «maniera»- uslub, manera)- XVI asr Evropa san'atidagi oqim. Manyerizm vakillari insonni tabiatning eng mukammal mavjudoti deb hisoblovchi Uyg'onish davrining yuksak g'oyalaridan uzoqlashgan holda asarlar yaratganlar. Manyerizm da tabiatga taqlid qilish emas, balki subyektiv g'oyalar ilgari surilgan. Bu bilan esa ular Yuqori Uyg'onish davri rassomlarining ayrim jihatlarini inkor qilganlar. 1520 yillarda manyerizm italiyalik Pontormo, Parmidjanino, Julio Romano kabi rassomlar ijodida ko'zga yaqqol tashlangan. Alohida bir ahamiyat kasb etmaydigan, lekin asar uchun yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan hayotiy chiziqlarni ishlash manyerizmga xos bo'lgan asosiy element hisoblanadi.

1520- 1940 yillarda Frantsiyada manyerizm ta'siri har tomonlama birinchi maktab- Fonteblo maktabining shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, manyerizm XVI asrning ikkinchi yarmida Germaniya va Gollandiyada kosmopolitik oqimning shakllanishiga asos soldi.

Italiyada, bir tomondan, Boloniya maktabi akademiklari, ikkinchi tomondan, Karavadjo g'oyalarining keng tarqalishi, barokko va realistik oqimlarning kirib kelishi XVII asr san'atidagi manyerizmning tugatilishiga asos soldi.

Moviy atirgul

1907 yilda Rossiyada «**Moviy atirgul**» (Golubaya roza) uyushmasi paydo bo'lgan. Shu nomdagi ko'rgazma atrofida to'plangan rassomlar ijodi to'g'risida ko'rgazma nomining o'ziyoq tasavvur beradi. Bu uyushma rassomlari ko'proq intim- lirik siymolar yaratishga, sodda va bevositaligi bilan ta'sir eta oladigan kompozitsiyalar ishlashga e'tibor qaratganlar. Chiziq va rang surtmalari ritmikasing imkoniyatlari va ularning emotsiyonal jihatlaridan foydalanib, o'zlarini hayajonlantirgan ramziy siymo yoki sodda shoirona g'oyalarni targ'ib etishga intilishgan. Bu guruhga qo'shilgan rassomlarning g'oyaviy- estetik qarashlarida yagona birlik yo'q edi. Ularning ayrimlari ramziy siymolar va shakllarga murojaat qilsa, aksincha, boshqa bir guruhi sharqona serhasham, jimjimador, afsonaviy hayotga murojaat qiladilar.

Modern

«**Modern**» uslubi (frantsuzcha «moderne»- yangi, zamonaviy)- XIX asr oxiri va XX asr boshlari asosan Evropada, shuningdek, Amerikada o'tmish uslublariga ijodiy yondashmay, to'g'ridan- to'g'ri ko'chirilishiga qarshi chiqqan san'at uslubi. Turli davlatlarda modern uslubi turlicha nomlangan. Masalan, Frantsiyada «art nuvo» (Art Nouveau), Belgiyada «yugendstil» (Jugendstil), Germaniyada «setsession» (Sezession), Avstryada «liberti» (Liberty). Italiya va shu kabi boshqa davlatlarda modern Evropa xalqlarining o'zini anglash va industriyaning keskin o'sishi davriga to'g'ri keldi.

«Modern» atamasi ilk bor norvegiyalik rassom Edvard Munk (1863-1944) asarlariga nisbatan qo'llanilgan. U o'z ijodini frantsuz realizmi ta'sirida boshladi. U postimpressionism ta'sirida ham asarlar yaratgan. Lekin XIX asrning 90- yillaridan boshlab uning ijodida mistika va simvolizmga burilish yuz berib, asarlarida «modern» uslubiga xos fazilatlar ko'rina boshladi. «Rassom opa- singillari», «Ko'prikdagi qiz» asarlari buning yorqin misolidir.

Modernning tub ildizlari romantizm davridagi shaxs va jamiyat, rassom va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirishga borib taqaladi. Modernning yaqqol ko'rinishi o'sha davr me'morligida o'z aksini topgan. Bu esa tasviriy san'atda «universal rassom» ning shakllanishiga turtki bo'ldi. Rassomlar ijodida naqsh elementlaridan foydalanish, keng tekisliklar hosil qilish, siluetlar asosida monoxromiyaga nozik yaqinlashuv, katta yuzalarga yaxlit rang berishni ko'rishimiz mumkin. Modern nafaqat me'morlik, balki rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, badiiy bezak ishlari, mebelsozlikda ham keng rivojlandi.

Modernizm

Modernizm (frantsuzcha «modernisme», «moderne»- yangi, zamonaviy). XX asrdagi ko'plab oqim va yo'nalishlarning nomi. Fovizm, kubizm, abstract san'at, futurizm kabi avangard an'analarga ega bo'lgan oqim va yo'nalishlar ham modernizm deb yuritilgan. Modernizm avvalo realizmga qarshi chiqdi va o'zaro ichki ziddiyatlar evaziga murakkab tarixiy davrni boshidan kechirdi. Uning yirik vakillaridan P.Pikasso, A.Deren va boshqalar real borliqqa murojaat qilganini ko'rishimiz mumkin. Modern vakillari «buyumlardan voz kechish» shiyoriga amal qilganlar. XX asrning 40- yillarida modern vakillarining ko'pchiligi Evropa va Amerikaga borib, u yerlarda yanada yangi yo'nalishlarga asos solishdi. Jumladan, abstraksionizm modern yo'nalishlarida eng yetakchi o'ringa chiqib oladi. XX asrning 50 yillariga kelib esa «pop- art» «buyumlarga qaytish»ni amalgam oshirdi. XX asrning 70- 80 yillariga kelib, modernizm inqirozi «postmodernizm» yo'nalishida o'z aksini topdi. Biroq bu bilan modernizm yo'q bo'lib ketgan, deyish mutlaqo to'g'ri bo'lmaydi, aksincha, u yangi- yangi yo'nalishlar, oqimlarning paydo bo'lishiga asos bo'lib, jahon san'atida o'z o'rniga ega.

Neoplastitsizm

Neoplastitsizm abstract san'atning ilk ko'rinishlaridan biri. 1917 yilda gollandiyalik rangtasvirchi rassom P.Mondrian va uning maslakdoshlari tomonidan tashkil qilingan. Ularning fikricha, neoplastitsizmga xoslik

«universal uygʻunlik» ka intilishda koʻrinadi. Ular universal uygʻunlikka ega katta, toʻgʻri burchakli figuralarni spektr rangiga yaqinlashtirgan holda local rang bilan boʻlgan qatʼiy solishtirish, taqqoslash kombinatsiyasini aniq, ravshan perpendikulyar qora chiziqlar bilan ajratgan holda erishmoqchi boʻlganlar.

Op- art

Op- art (inglizcha «op.art.»- «optical art» soʻzining qisqartmasi boʻlib, optic sanʼat degani) abstrakt sanʼatning soʻnggi koʻrinishlaridan biri boʻlib, avangard yoʻnalishdagi tasviriy sanʼat oqimlaridan biri hisoblanadi. XX asrning 30- yillarida ijod qilgan V.Vazareli (aslida Vasharxey) geometric, abstraktsion ishlari bilan op- artga asos slogan.

Biroq, op- art boʻyicha ilk tajribalar 1840- yillarning yarmiga, keng yoyilishi esa 1960 yillarga toʻgʻri keladi.

Op- art yoʻnalishi vakillari murakkab optic jihozlardan foydalanib, turli ranglar effektiga erishganlar va noreallik illyuziyasiga erishishga intilganlar.

Ular ijodining oʻziga xos tomoni oddiy geometric shakllarni bir necha marotalab takror tasvirlash asosida ularni fazoda va tekislik yuzasida harakatlanayotgan koʻrinishini tasvirlashdadir. Op- artning ayrim imkoniyatlari sanoat grafikasi, plakat sanʼatida hamda ommaviy bayramlarni badiiy bezashda qoʻllanilgan.

Pop- art

Pop- art (inglizcha «pop.art.»- «popular art» soʻzining qisqartmasi, ommabop sanʼat degan maʼnoni anglatadi) atamasi ovozga taqlid qiluvchi (inglizcha- «pop») uzib urilgan, jarangli ovoz, potrlash, hayratga soluvchidir. 1950- 1960 yillar Gʻarbiy Evropa va Amerikadagi neoavangard yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Pop- art yoʻnalishi vakillari har qanday buyum sanʼat asari boʻlishi mumkin, degan kontseptsyani ilgari surganlar. 1962 yilda Venetsiyada pop- art rassomlarining dastlabki koʻrgazmasi tashkil etilgan. R. Raushenberg, D.Jons, E.Uorxol, K. Oldenburg bu yoʻnalishning yirik vakillari boʻlgan. Pop- art abstrakt sanʼatga, dadaizm va syurrealizmga qarshi yuzaga kelgan. Ular ommabop mahsulotlar namunalari «reallikka qaytish», «estetik qiymatni ochib berishi» kabi gʻoyalarni ilgari suradilar.

Postmodernizm

Postmodernizm (inglizcha «postmodernism»)- XX asrning 70- 80 yillar sanʼatidagi yoʻnalish. Uning dastlabki elementlari Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kela boshladi. Uni tarixda «katta qoʻrquv» farzandi deb ham atashgan. Boisi shu davrga kelib sovuq urush tufayli, insoniyat tsivilizatsiyasi barbod boʻlishi xavfi yuzaga kelgan edi. Postmodernizm haqidagi zamonaviy sanʼatshunoslikda yagona, aniq bir taʼrif berilmagan. Postmodernizm oʻz gʻoyasining uslubiga koʻra modernizmga qarama- qarshi qoʻyiladi. Modernizmga xos boʻlgan «neoavangardizm» yoki «soʻnggi modernizm» bilan bir vaqtda mavjud boʻlgan postmodernizm ular singari asta- sekinlik bilan rivojlanish oʻrniga modernizmning oʻenini egallashga intildi. Unga xos boʻlgan asosiy jihatlar meʼmorlikda yaqqol namoyon boʻldi. Tasviriy sanʼatda esa borliqni natura- buyum asosida badiiy tasavvur qilishga intilishda aks etadi.

Prerafaelchilar

Prerafaelchilar (lotincha «prae»- oldin va Rafael) XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan ingliz rassomlari va yozuvchilari D.T. Rosseti, J.E. Milles va X.Xantlar 1848 yilda «Prerafaelchilar birodarligi» ga asos solganlar. Prerafaelchilar «sovuq akademizm» (ular buning ildizini Yuqori Uygʻonish davri sanʼatida koʻrgan) ga qarshi «tirik gʻoya» ni, aniqrogʻi primitivlikni qoʻyadilar. Oʻrta asrlarni qoʻmsash, zamonaviy sanʼatga boʻlgan talablar prerafaelchilar birodarligida stillashtirish va dekorativlikni orttirishga olib keldi. U.Morris, U.Kreyn, D.Uots kabi rassomlar ijodida murakkab tekislikka ega jimjimadorlik va siymolarni ilohiy, rangiy yechimiga egalik tomoniga siljish seziladi. Prerafaelchilarning gʻoyasi va amaliyotda erishgan natijalari «modern» uslubining shakllanishiga har tomonlama taʼsir koʻrsatgan.

Primitivizm

Primitivizm (lotincha «primitivus»- birinchi, eng oldingi)- XIX-XX asr oxirlari Evropa sanʼatida mavjud boʻlgan oqim.

Bu oqim vakillari ibtidoiy jamoa tuzumi, Antik davr sanʼati, Oʻrta asrlar sanʼatiga murojaat qilib, bolalarga xos ijod yoʻllarini «toza sanʼat» deb bilganlari holda uni realizm, naturalizm va impressionizmga qarshi qoʻydilar. P.Gogen ijodida, fovizm, kubizm, Parij maktabi vakillari, dadaizm kabi Frantsiyadagi oqimlarda, Germaniyadagi «Koʻprik», Rossiyadagi «Moviy atirgul», «Valet toppon», «Eshak dumi» singari oqim va yoʻnalish aʼzolarining ijodlarida primitivizm turlicha koʻrinishda namoyon boʻlgan.

Purizm

Purizm (frantsuzcha «purisme», lotincha «purus»- sof, toza)- 1910-1920 yillarda frantsuz rassomi A.Ozanfan va meʼmor Sh.E. Jaknere Le karbyuzyelar tomonidan asos solingan oqim.

Purizm vakillari kubizm va shu kabi turli avangardizm yoʻnalishidagi oqimlar tomonidan qabul qilingan naturani shaklan va ramziy lokal buyumlarni tartib bilan ifodalash, yanʼI mayda detallardan «tozalangan» tarzda tasvirlashni maqsad qilib olganlar. Puristlar ijodining xarakterli tomonlari yengil buyumlarni, ularning siluyetlari va bir xil buyumlarning chetki chizgilarini yengil, nafis ishlashidadir (koʻzalar, stakanlar va shu kabi buyumlar). Tasviriy sanʼatda rivoj topmagan purizm meʼmorlikda, xususan, Le Korbyuzye meʼmorligida qisman aks etadi.

Regionalizm

Regionalizm (lotincha regionalis, inglizcha regional -mahalliy) – 1930-40 yillar Amerika rangtasvir sanʼatidagi oqim. Regionalizm vakillari sof Amerikaga xos mavzularga murojaat qilganlar. T.X.Benton, J.C.Kerri kabi rassomlar Amerika tabiyatini, kishilar turmush tarzini tasvirlash orqali asarlaridagi shakllarga oʻtkir hayajon bagʻishlashga intilgan boʻlsalar, G.Bud singari rassomlar asarlarida sovuqqonlikni, qotib qolganlik va befarqlikni koʻrishimiz mumkin. Ayirim hollarda esa tanqidchilikni ham uchratamiz. Umuman olganda, regionalizm amerikacha primitivizm va nemischa yangi buyumlilikka hos oqim hisoblanadi.

Rokoko

Rokoko (frantsuzcha rococo, rokayl naqshidan kelib chiqqan) XVIII asr birinchi yarmi Evropa san'atidagi uslub bo'lib. Evropa plastik san'ati rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. U asosan me'morlik uslubi bo'lib, rangtasvir san'atida tantanovar ko'rinishlar, erotik-afsonaviy holatlar, assimetrik kompozitsiyalar xos bo'lgan asosiy jihatlarini o'ta noziklik bilan ishlaganlarida, topganlarida ko'rinadi.

Romanizm

Romanizm (lotincha romanus –rimniki) XVI asr Niderlandiya san'atidagi yu'nalish. Yan Gossart, B. van Orley, M. van Xemskerk, Yan van Skoreya, F. Floris va shu kabi roman uslubining boshqa vakillari Uyg'onish (aynan Rafael va Mikalandjelolardan) davri sanaati va manerizm tasiri asosida Niderlandiya sanaatida Antik davr afsonalariga murojaat qilganlari uyg'unlikda tasvirlashgan. Italyan sanaati durdonalaridan ilhomlangan holda ishlashga harakat qilganlari bilan ular yuzakilik bilan sheklanip qoldilar, natijada ekletizmga hos jihatlar nomayon bo'lgan.

Romantizm

Romantizm (frantsuzcha «romantisme»)-XIX asrning birinchi yarmi Evropa san'atidagi yo'nalish, san'atdagi g'oyaviy va badiiy harakat. Rassom ijodkor shaxs sifatida o'zini badiiy faoliyatning subyekti tariqasida namoyon qila olgan ilk yo'nalish-bu romantizm bo'ldi. Romantizm vakillari ochiq-oydin shaxs ijodi, ozodligi va erkini e'lon qildilar. Unda asosan Frantsiya burjuaziya revalyutsiyasi natijalaridan qoniqmaslik hissi evaziga g'oyaviy intilish, qatti-harakatlar bosh omil hisoblangan.

Romantizm ma'naviy madaniyatning barcha sohalarini, jumladan, san'at, adabiyot, musiqa, teatr, falsafa, estetika, tilshinoslik to'liq egalladi. Romantizm vakillari huddi klassitsizm vakilari singari universal uslubga ega edilar. Romantizmnining ilk ko'rinishi bir vaqtning o'zida bir necha davlatlarda paydo bo'ldi. XVIII asr oxirlari XIX asr boshlarida turli xil ko'rinishdagi romantizm shakllandi. Angliyada M.G. Fyusilning rangtasvir va grafik asarlarida, rassom va shoir U. Bleyk ijodida, Ispaniyada esa F. Goyaning so'ngi ishlarida, Frantsiyada J.A. Davidning portretlarida, A.J. Groning dramatik kompozitsiya va portretlarida, A.J. Groning dramatik kompozitsiya va portretlarida, P.P. Prudoning lirik asarlarida, F. Jerarning romantik an'analari bilan akademizm uslublarining uyg'unligida ko'zga tashlanadi. Birmunsha yorqin romantizm maktabi Frantsiyadagi Restavratsiyalar davri va iyul monarxiyasiga to'g'ri keldi. 1820 yillarida Y. Delekrua romantik maktabning boshlig'i sifatida tan olindi. Romantiklar ijodida portret uchun yorqin xarektirni topish, diniy hayotni aks ettirish, inson hissiyotni o'tkinchi lahzalarni tasvirlash eng asosiy jihatga aylandi. U yerda ham J. Konstabl, R. Boningtonlarning realistik manzaralari, U. Ternerning manzara ifodasidagi yangi badiiy va fantastik asarlari o'ziga xosligi bilan aloqada ahamiyat kasb etdi. Rossiyada esa romantizm ko'plab rassomlar ijodida turli hil ko'rinishda namoyon bo'ldi. Jumladan, peterburglik rassomlar A.O. Orlobiskiy ijodi, O.A. Kipreniskiyning portretlari, B.A. Tropinin ijodining bir qismi buning isbotidir. Romantizm rus

manzaralari F.Shedrin, M.N. Borobiev, M.I.Lebedov va yosh I.K.Aybazoviskilarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, romantizm K.P.Brullov, F.A.Bruni, F.P.Tolstoylar ijodida klassitsizm bilan o'ziga hos qarama-qarshilik asosida uyg'unlik hosil qildi. Shunga qaramastan, K.P.Brullovning portretlari o'zida romantizm printsiplarini bir muncha yorqin namoyon qilgan rus san'ati namunasidir. P.A.Fedotov va A.A.Ivanovlar va P.A.Fedotov va A.A.Ivanovlar ham ma'lum ma'noda romantizmga dahildor sanalaridir.

Simvolizm

Simvolizm (frantsuzcha symbolisme, grekcha symbolon– belgi ramz, simvol) –XIX asrning ikkinshi yarmi va XX asr boshlarida Evropa san'ati va madaniyatida mavjud bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalish falsafadagi pozitivizm, tasviriy san'atdagi naturalizm, kabi sog'lom fikrlovchi oqimlarning hukmronligiga qarshi isyon tariqasida paydo bo'lgan. Bunyodkor rassom olam uyg'unligi belgisini doimo sezuvchi, o'tmish va zamon, va kelajak o'rtasidagi, kelajak hususida payg'ambarlarcha sezim, oldidan bilish xususiyati bilan vositasi sifatida qaralgan, shuningdek, o'tmishni ilohiylashtirish ham simvolizmga xos edi.

Simvolizm o'zining shakliiy vositalariga ko'ra XIX asrdagi klassitsizm, romantizm, naturalizm impressionizm kabi yo'nalish va oqimlar bilan hamohang shakllangan. Biroq, simvolizmda musiqa bilan uyg'unlikka asoslangan ertaknamo-folklor modernga yaqinlik katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Nur, SH.Bobojonov, O.Qozoqov, B.Oxunov, X.Ziyoxonovlarning ijodida simvolizm elementlarini ko'rish mumkin.

Futurizm

Futurizm (lotincha futurum – kelajak) 1910-1920 yillardagi ayirim Evropa davlatlari, jumladan, Italiya va Rossiyadagi avangardlik harakatlarining umumiy nomi bo'lib, tanlangan mavzulari bo'yicha yaqin biroq badiiy-g'oyaviy qarashlari ishlash uslublariga ko'ra qarama-qarshi bo'lgan avangard harakatidir.

Italiyada boshqa avangard yo'nalish vakillariga nisbatan futuristlar (U.Bachchoni, K.Kara, J.Balla, J.Severini, L.Rossiya va boshqalar) kirib kelayotgan industriya oldida qo'rqinch hissini sezib, ba'zan kelajak texnik taraqqiyotining tashqi ko'rinishini inobatga olgan tajribalar asosida taraqqiyotni tasvirlashga intilganlar. Shuning uchun ham futuristlar ayirim uslublari jihatidan kubizmga yaqin bo'lsalar ham, chetki chizgilarni ko'paytirish, qarama-qarshi ranglarni qo'llash va ayirim hollarda kompozitsiyaga matn parchalarini kiritish asosida figuralarning shiddatli harakatlarini ifodalamoqchi bo'ladilar.

Rossiyada esa futurizm iborasi bilan turli-tuman rus avangard an'analar, jumladan, postsezanzizm, kubizmning dekorativ ko'rinishi, neoprimitivizm, ekspressionizm, dadaizm kabi abstrak shaklnafislik bog'liq bo'lgan.

X U L O S A

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining zimmasiga ham o'ta ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Darhaqiqat xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib xalqaro miqyosida to'la o'zligini namoyish etdi.

Tasviriy san'at, ya'ni ma'naviyat o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil talablarga, o'smir yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va urf-odatlarini, an'analarini mukammal biladigan va xurmatini joyga qo'yadigan bo'lishi kerak.

O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u eng avvalo o'z kasbini jonkuyari, dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo'lmog'i talab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg'or tajribalarga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qa'tiylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin.

O'qituvchi tasviriy san'atda maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib, muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiat go'zalligini, Ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'riflab bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqтира olmaydi.

Bugungi zamonaviy bo'lajak pedagog Markaziy Osiyo xalqlarining amaliy va tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga o'zlashtirmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi.

-O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, uning meros namunalarini har tomonlama o'rgatish.

-Ayni yangilanish, rivojlanish davri yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma'sul shaxslar qilib tarbiyalash.

-Ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli, o'qituvchi yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javo beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash.

-O'quvchi va yoshlarni tasviriy san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanishi, o'quvchi va yoshlar faoliyatini rivojlantirish, to'g'ri va asosiy shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borishi.

-Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san`at asarlarini mushohoda qila olmog`i va uning tushunishi sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo`lishi.

-Tasviriy san`at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir. Bunday imkoniyatni har bir mashg`ulotda qo`llash uchun yangicha uslub va mumkin bo`lgan usullarini ishga solish xamda amalda qo`llay olish mahoratini o`rganish.

-zamon talabi bilan dars va mashg`ulotlarni noan`anaviy dars rejalari bilan o`tkazish.

-zamonaviy texnika vositalaridan unumli foydalanib dars samadorligini oshirish.

- Jahon andozlariga xos yangi texnologiyalarni o`rganib darsda qo`llay olish mahoratini egallashi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni o`zida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak bo`ladi. Rassom-o`qituvchi qaerda, qanday o`quv maskanida ta`lim jarayonini olib borishdan qat`iy nazar, pedagogik faoliyatni ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar xaqiqiy rassomlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Tasviriy va amaliy san`at o`qituvchisining o`z soxasidagi savodxonligini etarli darajada bo`lsagina, o`quvchi va talabalar bilan yonma-yon o`tirib o`zlari namuna ko`rsata oladilar.

O`shandagina o`quvchilar va talabalar o`z ko`zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko`rib ruhan xis qiladi xamda san`atning nozik sirlarini `ushunish etishiga imkoniyatlari kengayadi. Har bir rasmda ishlanayotgan narsa va buyumlarning tasvirlanishi yo`l-yo`riqlarini professionallik darajasida ko`rsatishga erisha olgan o`qituvchi, o`quvchi va talabalar qalbidan aloxida o`rin topa oladi. Ustozning dastgohi eng ishonchli va namunali vosita, undan yoshlar quvonch bilan andoza olishadi.

Tasviriy san`at o`qituvchisining ma`naviy qiyofasi uning ijodiy izlanishlari, u yaratgan nafis, go`zal asarlari o`qituvchi va yoshlarda Vatanga, san`atga, hayotga chin muhabbatini uyg`otmog`i lozim.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san`at o`qituvchining faoliyati ezgulikka boshlovchi yo`ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin».T., 1994
- 2.I.A.Karimov. «Bunyodkorlik yo`lidan». II-tom, T., 1996
3. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». Toshkent. 1999
4. I.A.Karimov. «Yuqori ma`naviyat-engilmas kuch».Toshkent. 2008
- 5.A.Sulaymanov, B.Jabborov.
«Tasviriy san`atda oqim va yo`nalishlar». T.2008
- 6.Hasanov R. «Tasviriy san`at asoslari». T.2009
- 7.Oydinov N. «Tasviriy san`at tarixi». T. 2007
- 8.Hasanov R. «Tasviriy san`atni o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlar». Ikkinchi qism.T.2006
- 9.Xudaybergenov R.A. «Kompozitsiya» (mahobatli rangtasvir). T.2007
10. Dmitrieva N.A. «Kratkaya istorix iskusstv». M. 1975
- 11.O.K.Apuxlin. «Tasviriy san`at asoslari».T.1967
- 12.Abdullaev S,. «San`at tarixi». II-qism. T. 2001
- 13.Abdullaev N. «San`at tarixi». T.1987
- 13.«Istoriya iskusstv zarubejnyx stran».moskva. 1966. «Iskusstvo».
- 14.«Entsiklopedicheskiy slovar` yunogo xudojnika».
15. Tasviriy san`at (umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv standarti). Toshkent. 1999
16. www.pedagog.uz
17. www.nbgf.intal.uz
18. www.ziyonet.uz
19. www.edu.uz

